

МАКЕДОНИЯЛИК ALEKSANDR TARIXI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Egamberdiyev Azizbek Ortiq o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi, g'ayrioddiy kuch qudrat sohibi Aleksandrning hayoti, uning bosqinchilik yurishlari hamda jahon siyosatida tutgan o'rni xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Makedoniya, Pella, Filipp II, Olimpiada, Vavilon, Doro III, Misr, Gavgamela, Navtaka, Aleksandriya Esxata.

Sharq mamlakatlarida Iskandar Zulqarnayn deb ham ataluvchi Makedoniyalik Aleksandr mil.avv. 356-yilda Makedoniya podsholigining poytaxti Pella shahrida tug'ilgan. Otasi Filipp II mil.avv. 359-yilda Makedoniyanı birlashtirib, mustaqil davlat tuzishga erishadi. Aleksandrning onasi Epir podsholigi hukmdorining qizi Olimpiada edi. Olimpiada o'zini butkul taxt vorisi bo'lmish o'g'lining tarbiyasiga bag'ishladi. Filipp II esa ko'pincha harbiy yurishlarda bo'lgani uchun o'g'liga ko'p vaqt ajrata olmas edi va hamisha undan uzoqda bo'lar edi. Shunga qaramasdan Iskandar otasining jasorati va armiyasining erishgan natijalari bilan faxrlanar edi. Biroq Olimpiada o'g'lini doimo otasiga qarshi qayrab kelar edi, shuning uchun bo'lajak hukmdor otasiga nisbatan onasiga ko'proq mehr bergen edi.

Shahzoda Iskandar bo'lajak hukmdor bo'lganligi uchun maxsus ta'lim olgan edi. U 13 yoshidan boshlab buyuk faylasuf Aristotel (Arastu)dan ta'lim tarbiya ola boshlagan. Aristotel taxt vorisining ustozи bo'lganligi uchun shogirdiga ko'proq siyosat, etika va falsafadan ta'lim bergen. Bundan tashqari, vasiyligidagi Iskandarga klassik ta'lim berishni xohlagan Arastu unga tibbiyat, adabiyot va she'riyatdan ham saboq bergen. Iskandar yoshlik yillaridanoq izzattalablik, qaysarlik va maqsad sari intilish kabi sifatlarni ko'rsatib kelgan [Kenjayev E.78-85 b.].

Iskandar 16 yoshligida otasi Vizantiyani zabit etishga otlanar ekan, ilk bor Makedoniya boshqaruvini o'g'liga topshirib ketadi. Huddi shu paytda mamlakatda isyon ko'tariladi. Yosh shahzoda poytaxtda qolgan kuchlar bilan qo'zg'oltonni bostirishga erishadi. Bu Aleksandr uchun katta hayotga kirib kelishidagi dastlabki yirik voqeа bo'ldi. Oradan ikki yil o'tib, mil.avv. 338-yil 2-avgustda Aleksandr yana qo'mondon sifatida jang maydoniga chiqadi. Xeroneyadagi Beotiya tepaligida yunonlar bilan bo'lib o'tgan jangda Aleksandr Makedoniya qo'shinining chap qanotini boshqaradi[Rajabov R. 123 b.].

Mil.avv. 336-yilda otasi fitnachilar tomonidan o'ldirilgandan so'ng, 20 yoshli Aleksandr Makedoniya taxtiga o'tiradi. Taxtga o'tirishi bilanoq Iskandar birinchi navbatda otasining o'limiga sababchi bo'lgan dushmanlarni yo'q qiladi va soliqlarni bekor qiladi. So'ngra, ikki yil davomida mamlakat shimolidagi grek qabilalarining bosqinchiliklarini so'ndirib, Yunonistonda Makedoniya hukmronligini o'rnatadi. Iskandar butun Elladani birlashtirib, otasi Filipp II bir umr orzu qilgan Eronni zabit etish uchun buyuk yurishni boshlaydi. Aynan shu yurishda forslar bilan bo'lib o'tgan janglarda Makedoniyalik Aleksandrning ajoyib harbiy mahorati namoyon bo'ldi. Vaqtlar o'tib, Buyuk Aleksandr mohir sarkarda va jahongir nomini oladi, uning dovrug'ini eshitgan mamlakatlar jangsiz unga taslim bo'ldilar. Sarkarda hech bir qiyinchiliksiz Suriya, Finikiya, Falastin va Yaqin Sharqning boshqa davlatlarini ishg'ol qildi. So'ngra, Aleksandr Misrga yurishini boshladi, u yerda ham uni iloh sifatida ochiq yuz bilan kutib oldilar. Misrda sarkarda yana bir shaharni o'z nomi bilan atab, unga Iskandariya nomini berdi [O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.205-208 b.].

Mil.avv. 334-yil mayida Granik daryosi yonidagi hamda mil.avv. 333-yil Gavgamelada bo'lган janglarda fors qo'shinlari to'la mag'lubiyatga uchradi. Shundan so'ng, Aleksandr uchun Ahamoniylar davlatining markazlariga yo'l ochilgan edi. Aleksandr dastavval Bobilni, so'ngra Suza, Persepol, Pasargada shaharlarini egallab fors podsholarining xazinalarini qo'lga kiritdi. So'nggi Ahamoniy hukmdori Doro III avval Midiyaga, keyin esa Baqtriyaga qochib ketdi. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufning ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriyada Doro III ga qarshi fitna uyushtirilib, u o'ldiriladi va fitnaga boshchilik qilgan Baqtriya satrapi Bess o'zini Ahamoniylar podshosi deb e'lon qiladi. Iskandar Eronga qaytib kelib, Suza, Persepol hamda Vavilon(Bobil)ni zabit etadi va Vavilonni buyuk davlatining poytaxti qilib o'zgartiradi[www.wikipedia.uz. internet sayti].

Makedoniyalik Aleksandrning diyorimizga kirib kelishi dastlab, Nautakadan so'ng, yunon-makedon qo'shinlari Sug'diyonaning poytaxti Maroqandaga yurish qilib uni egallaydilar. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf ma'lumotlariga ko'ra, yunon-makedonlar shaharda o'zlarining kichik garnizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib, vayron etib, shimoli-sharqqa tomon harakat qila boshlaydilar. Jizzax va O'ratega oralig'idagi tog'li hududlarda yunon-makedon qo'shinlari qattiq talofat ko'radilar. Aleksandrning o'zi ham og'ir yarador bo'ladi. Shunga qaramasdan tog'li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag'lub etgan[Тревер К. 52-53 б.].

Yunon-makedonlar dasht ko'chmanchilari saklar va sug'diyalar o'rtasida chegara bo'lgan Yaksart – Sirdaryoga tomon harakat qiladilar. Yunon-makedonlar Yaksart bo'yida to'xtab bu yerdagi shaharlarga o'z harbiy qismlarini joylashtira boshladilar. Sug'diyona, Baqtriya, Marg'iyona va Parfiya Aleksandrning davlatiga qo'shilib, keyinchalik ularning hududida ayrim yunon-makedon davatlari vujudga keladi. O'rta

Osiyoda istilo etilgan viloyatlar va shaharlarni boshqarish uchun yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Yozma manbalarning ma'lumot berishicha, Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn Girkaniyada, Artaboz Baqtriyada, Oksiart va Xorien Sug'diyona viloyatlariga hokimlik qilganlar [www.wikipedia.uz. internet sayti]. Mil.avv. 325–

324-yillarda yunon-makedonlar tomonidan istilo etilgan O'rta Osiyo hududlaridagi mahalliy aholi qo'shnlari yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil. avv 324-yilda Suza shahrida o'n mingta yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar. Astasekinlik bilan Iskandar Osiyo hukmdoriga aylanib bordi. U ikki yil davomida hozirgi Afg'oniston, Tojikiston va O'zbekiston hududlarini o'z ichiga olgan Sug'diyona va Baqtriyani zabit etdi. Yangi hududlarni ishg'ol qilar ekan, Iskandar shaharlar barpo etib, ularga o'z nomini beradi. Masalan, Esxatadagi Iskandariya bilan Arahisiyadagi Iskandariya shaharlari bizning davrimizda Xo'jand va Qanqag'or nomi bilan mashhur.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, Iskandar buyuk miloddan avvalgi 323-yil 33 yoshida vafot etdi. Ulug' hukmdor va sarkarda Makedoniyalik Iskandar buyukning o'limidan butun imperiya chuqur qayg'uga botdi va saltanatda motam e'lon qilindi. Hukmdorning o'limi birdaniga sodir bo'lgani uchun uning o'rniga o'tiradigan voris tayinlanmagan edi. Shuning uchun ham mamlakatda tartibsizliklar boshlandi va saltanat tanazzulga yuz tuta boshladi [Rajabov R. 128-130 b.].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Makedoniyalik Aleksandr garchi qisqa vaqt hukmronlik qilgan bo'lsa-da, jahon tarixida o'chmas iz qoldirdi. Uning davrida Makedoniya podsholigining tarkibiga Yunonistondan to Hindistongacha bo'lgan hududlar birlashtirildi. Shuningdek, Aleksandr 3 qit'ada (Afrika, Yevropa, Osiyo) o'z mustamlakalariga ega bo'lgan kamdan-kam hukmdorlardan biri sifatida tarixga kirdi. Uning Sharqqa qilgan yurishi O'rta Osiyo uchun ham kelajakda muhim ahamiyat kasb etdi. Aynan, yunon-makedon istilolari orqali bizning hududlarimizga antik davr yunon madaniyati va ilm-u fani kirib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kenjayev E. "Qadimgi dunyo tarixi". Namangan. 2007.
2. Rajabov R. "Qadimgi dunyo tarixi". Toshkent. 2015.
3. Тревер К. "Александр Македонский в Согде" вестник истории. 1947.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2000.
5. www.wikipedia.uz. internet sayti